



## INTERFAOL TA'LIM METODLARI ASOSIDA BO'LAJAK TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*O'ZMPU "Texnologiya va professional ta'lim metodikasi" kafedresi  
dotsenti S.Yu.Rajabova*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi yoritib berilgan.*

**Annotatsiya:** *V dannoy state opisana metodika ispolzovaniya interaktivnykh pedagogicheskix texnologiy v podgotovke buduuux uchiteley professionalnogo obrazovaniya.*

**Annotation:** *This article describes the methodology for using interactive pedagogical technologies in the training of future vocational education teachers.*

Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislar tayyorlash sifati ko'p jihatdan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini samarali o'qitish bilan belgilanadi. Mutaxassislik fanlarini o'rganishda ko'proq amaliy ta'limga e'tibor kuchaytirilib, ishlab chiqarishning aniq sohalari bo'yicha, ularda aniq mutaxassislik xususiyatlarini aks ettiruvchi bevosita chuqur, puxta bilimlar beruvchi, tegishli kompetensiyalar hosil qiluvchi jarayonlarni qamrab oladi.

Faol ta'lim metodlarini tanlashda ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish imkoniyatlarini, ya'ni ularning yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda, jamoadagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligini ham inobatga olish muhim. O'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik vaqtida, ta'lim metodini tanlayotib, biz, albatta, talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini hisobga olishimiz lozim.

Fanga tegishli mavzularining o'qitish ketma-ketligi va davomiyligi faol metod tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Faol metodlarning ba'zilari talabalarni faollashtirishga qancha ko'p vaqt talab qilsa, topshiriqlar yoki amaliy faoliyatlari



bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. O'quv mashg'ulotda vaqt shunchalik chegaralangan bo'lishi mumkinki, qo'llashda ko'p vaqt talab qiladigan faol metoddan foydalanishi imkonini bermaydi.

Ba'zi faol metodlarni qo'llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi, ammo maxsus o'quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan faol metodlardan foydalanmoqchi bo'lsak, u holda didaktik ta'minotni amalga oshirishimiz lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarni konstruktorlik-texnologik kompetentligini rivojlantirishda mustaqil faoliyatni amalga oshirish jarayonining etakchi va samarali metodi sifatida biz portfolio metodini ko'rib chiqdik, u quyidagi pedagogik vazifalarni hal qiladi:

- talabalar yuqori motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi;
- kasb ta'imida konstruktorlik-texnologik kompetentlikni rivojlantiradi;
- talabalar faolligi va mustaqilligini rag'batlantiradi, mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi;
- talabalar refleksiv malakalari va baholash faoliyatini rivojlantiradi, o'z-o'ziga adekvat baho berishni shakllantiradi;
- har bir talabaning individual yutuqlarini miqdor va sifat jihatdan belgilaydi;
- libos dizayni sohasida raqobatbardoshlikni rivojlantirish uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratadi.

Portfolio metodi libos dizaynida ko'nikma va malakalarni egallash darajasini xolisona baholash imkonini beradi, konstruktorlik-texnologik faoliyatga qiziqish va o'qishga ijobiy motivatsiya beradi, talabalarning o'z o'ziga ta'lim berishini rag'batlantiradi, ularning o'z-o'zini rivojlantirish dinamikasini namoyish qiladi.

Portfoliodan foydalanish talabalarda o'quv va kasbiy ma'lumotlarning turli ko'rinishlari bilan metodik ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi, kasbiy refleksiyani shakllantirish uchun kasbiy bilim va ko'nikmalarni tizimlashtiradi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy rivojlanishida kasbiy tayyorgarlik darajasini baholash, xususan libos dizayni sohasida konstruktorlik-texnologik faoliyat jarayonida har bir talabaning alohida portfolio yaratishi muhim rol o'ynaydi. Bu holda, portfolio metodi bo'lajak texnologiya ta'limi yo'nalishi



mutaxassislarining individual yutuqlarini yozib olish, to'plash va baholash usuli, shuningdek, shaxsiy yutuqlarni aniqlash metodi sifatida ishlatiladi. O'tkazilgan loyihaviy tadqiqotlarda talabalar elektron taqdimotlar shaklida portfolio yaratdilar, unda dizayn mahsulotini loyihalash va tayyorlash jarayonining barcha bosqichlari ko'rgazmali namoyish qilindi.

Mozaika metodi-interfaol metod bo'lib, guruhli ishlash orqali amalga oshiriladi. Birinchi bo'lib bu metodni ta'limga Amerikalik psixolog Elliotom Aronsonom olib kirgan va bu talabalarning o'zlashtirishida ijobiy natijalarni ko'rsatgan. Bu metodni "Tikuv bumlarini konstruksiyalash" fanida qo'llash orqali talabalarda konstruktiv echim topish, ya'ni model xususiyatiga mos detallarni aniqlash va joylashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu to'g'ri qaror qabul qila olish, buyum vazifasidan kelib chiqib, uni loyihalash va modellashtirish kabi zarur bo'lgan kasbiy xususiyatlarni o'zlashtirishga imkon beradi.

Texnologiya ta'limi yo'nalishi talabalarining konstruktorlik-texnologik kompetentligini rivojlantirishda quyidagi interfaol ta'lim metodlarini samarali imkoniyatlarga ega ekanligini e'tirof etish mumkin: "effective practical result", "team creative collections" va "buddying". Ushbu ta'lim metodlari talabalarda ijodiy faoliyat malakalarini va jamoaviy ijodiy ishlashni tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

"Effective practical result"(Samarali amaliy natija) texnologiyasini qo'llash. Amaliy mashg'ulotlarda uch ishtirokchidan iborat kichik guruh shakllantiriladi va guruhdagi har bir talabaga eskiz loyihasini chizish vazifasi topshiriladi. Har bir talabaning eskiz loyihalari ekspert guruhi tomonidan baholanadi, guruhdagi bitta eng maqbul eskiz tanlab tasdiqdan o'tadi. Tasdiqdan o'tgan eskiz loyiha asosida kiyim konstruksiyasi guruhdagi ishtirokchilar faoliyatida quriladi, modellashtiriladi va tikish texnologiyasi bajarilib, tayyor buyum holatiga keltiriladi. Har bir guruhning dizayn mahsuloti ekspert guruh tomonidan baholanib, qo'yilgan baholar izohlab beriladi. Bu metod musobaqa shaklida uyushtiriladi. Bu orqali talabalar o'rtasida o'zaro raqobat muhiti yuzaga keladi. Bu ta'lim metodlarini qo'llashda o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari-o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida



yuzaga keladigan hamkorlik, ya'ni hamkorlikda dizayn loyihalarini bajarish, guruhlarga bo'linib ijodiy muhitni hosil qilish natijasida turli liboslar kolleksiyalarini yaratish, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, ijodiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash imkonini beradi.

“Buddying” metodida esa talabalar tomonidan turli vazifalarni bajaruvchi mutaxassislar (rassom, dizayner, konstruktor, texnolog) rollariga taqsimlanib atele muhiti hosil qilinadi, ya'ni talabalar rolli faoliyatni bajaradilar. Bu orqali ularni kelgusi mehnat faoliyatiga tayyorlash, o'zlarini ishlab chiqarish muhitida tasavvur qilish va buning natijasida ular real holatni aks ettiradi. Bu esa talabalarni tezroq o'zlarini kasb egasi sifatida ko'rishlari va kasbga bo'lgan qiziqclarini, shu bilan birga faoliyatda uchraydigan qiyinchilik va muammoli vaziyatlarga tayyor bo'lib boradi. Bu metodlarning barchasi amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarda ijodiy yaratuvchanlik, konstruktorlik va texnologik kompetensiyalarini rivojlantiradi.

“team creative collections” (Kriativ kolleksiya yaratamiz) metodi “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” fanida qo'llaniladi. Ushbu metod jamoaviy ishlashga mo'ljallangan bo'lib, guruhdagi barcha talabalar hamkorlikda ya'ni ularga o'qitilgan bo'lim bo'yicha kolleksiya yaratish topshirig'i beriladi. Guruhli tarzda hamkorlikda libos eskizlari chiziladi va eng kreativ (noan'anaviy) deb topilgan eskizlar ustida ish olib boriladi. Talabalar o'zlari o'zaro kelishgan holatda libos eskizlarini tanlab olib, tayyor libos holatiga keltiradi. Ish nihoyasiga etganda guruh talabalari tomonidan ko'rgazma uyushtiriladi va namoyish ko'rsatiladi. Bu metodning afzalliklari talabalarni hamkorlikda ishlash, libos yaratishdek ijodiy faoliyatni o'zaro fikr almashish orqali kreativ g'oyalarning yaralishi namayon bo'ladi. Talabalarda dizayn sohasiga yanada qiziqish ortib, tayyor kolleksiyani turli ko'rik tanlov va haftaliklarda namoyish etish orqali o'zlarini mehnat bozorida tanitish imkoni yuzaga keladi.

Xorijiy davlatlarda texnologiya ta'limini amalga oshirishda fikrlash jarayonini faollashtirish, yangi g'oyalarni, yangi libos dizaynini izlab topishga undovchi evristik metodlar keng qo'llaniladi.



Kiyimni yaratishda yangi yondashuv yoki yangi nuqtai nazarlardan biri bu inversiya metodi hisoblanadi. Yangi vazifani izlab yoki o'ylab topish juda qiyin. Ko'proq yangi echimlarni izlash metodlarini topish mumkin. Agar biron-bir ob'ekt odatda tashqaridan ko'rib chiqilsa, inversiya metodida ichkaridan tekshirish zarur hisoblanadi. Misol uchun, agar kiyim detali (masalan, cho'ntak) har doim gorizontall joylashtirilgan bo'lsa, inversiya metodida, bu detalni vertikal holatda qo'yish yoki burchak ostida joylashtirish mumkin bo'ladi. Ag'darish, teskarisini o'girish, joylarini o'zgartirish - bu g'oyalar inversiya metodi mohiyatini tavsiflaydi.

Original g'oyalarning ko'p qismi analogiyada paydo bo'ladi va bu jarayonni yangi g'oyalarni rag'batlantirish uchun muvaffaqiyatli qo'llash ko'pincha muammolarni hal qilishda boshqa masalalarda, tabiatda, texnikada, san'atda uchraydigan o'xshash holatlar aytiladi. Ayniqsa, boshqa sohalarda shunga o'xshash badiiy echimlarni qo'llash, yangi, original g'oyalar olish uchun foydalanishda juda oddiy. Analogiya yo'lidan foydalanib rang tanlashda, tirik tabiat shakllaridan g'oyalar olinadi. Tabiat turli narsalarni yaratish uchun ko'p usullarni yaratdi va u ko'plab yangi g'oyalar berishi mumkin. Kiyim modelini yaratishda talabalar model-analoglarini tahlil qiladilar. "Eski"ni tahlil qilmay, yangini yaratish mumkin emas.

Insoniy munosabatlar sohasida ko'pincha empatiya metodidan foydalaniladi. Empatiya insondan ma'lum bir obrazga kirishni talab qiladi. Mashq qilish orqali ushbu metodni qo'llash ko'pchilik odamlar uchun samarali bo'lishi mumkin. Analogiya va empatiya metodlari yakka holda yoki guruhda, masalan, musobaqalarda liboslar to'plamini namoyish etish uchun yaratishda foydalidir.

Fantaziya metodi dizayn mahsulotini yaratishda yangi g'oyalarni paydo bo'lishiga olib keladi va aniq bo'lmagan buyumlar yoki jarayonlarda foydalaniluvchi fantastik fikr yuritish bilan yakunlanadi. "Fantaziya – bu o'tmishni qayta ishlash asosida yangi obrazlar yaratishdan iborat ruxiy jarayon".

Kiyim yaratuvchi kishilar uchun fantaziya juda muhim ahamiyatga ega. Yangi, mavjud bo'lmagan modelni yaratish uchun rivojlangan, boy fantaziya zarur. Fantaziyasi rivojlanmagan inson uchun har qanday kiyim eskizini yaratish qiyin va illosiz holat hisoblanadi. Ijodiy fikr (obraz-g'oya) kuzatish natijasi va uni baholashda



paydo bo'ladi. Dizayn predmetini yaratishdan oldin quyidagi savollarni hal qilish zarur:

G'oyaning mohiyati nima va u nimani anglatadi?

Kim uchun mo'ljallangan?

Maqsadi nima?

Buyum o'z vazifasini bajarishi uchun qanday shaklga keltirish kerak?

G'oyani shaklda namoyon qilish uchun qanday kompozitsion qarorlar (hajmi, rangi, fakturasi)ni qo'llash kerak, uning konstruksiyasi qanday?

Qanday materiallar va vositalarni qo'llash kerak?

Atrof-muhit bilan stilistik bog'liqmi?

Mahsulot o'zgaruvchan inson ehtiyojlarini qondiradimi?

Taqdim etilgan mahsulot iqtisodiyimi, rentabellimi?

Yangi nimalar taklif qilinadi?

Eskizlashda qo'yilgan muammoni yangi kombinatsiyalar metodidan foydalanib, muammoning ikki yoki undan ko'p muhim yo'nalishlari aniqlanadi. Keyin, har bir yo'nalish uchun g'oyalar taklif qilinadi va ularni amalga oshirish yo'llarining bir nechta usullari tuziladi. Bu holda ijodiy echimlar ko'pincha narsalar, jarayonlar yoki g'oyalarni yangi kombinatsiyalarini yaratish usuli orqali topiladi. Masshtabdagi kiyim modeli eskizi "tasavvur maydoni"da o'z ahamiyatiga ega. Bu "maydon" buyum shakliga kichik o'zgarishlar qilinganda, butun bir mahsulot shaklini o'zgartirib yuborish imkonini beradi. Shunday qilib, eskizni buyumni tashkil qiluvchi detal va uzellar ko'rinishini oson o'zgartirish modeli sifatida ko'rib chiqish mumkin. Masshtab eskizi ko'plab eskizlardan kerakli variantni tanlab olishda vaqt sarfini qisqartiradi. Eskiz barcha "izlash maydoni"ga e'tiborsizlik qilib, o'z diqqatini maqbul echimlar kutish mumkin bo'lgan kichik qismlarga diqqat qaratishga yordam beradi.

Assotsiativ loyihalash metodi ob'ektning ko'p turli shakllanayotgan echimlarini yaratishga, ayniqsa, kiyimni loyihalashga qaratilgan. Bu metod yangi shakl, rang kompozitsiyalarini yaratish imkonini beruvchi turli omillar (ilm-fan, san'at, sanoat rivojlanishi)ni hisobga olib material shakli, rangi, ritmikasi, mato



gulining go‘zalligi va gullari joylashuvining mutanosibligini ko‘rib chiqadi. Dizayn-texnologik faoliyat jarayonida bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilari ushbu metodni qo‘llab, imkoniyat va shaxsiy xususiyatlarni hisobga olgan holda yangi modellarni yaratadilar.

Mashq va dizayn-tahlil metodi tadqiqotchi o‘qituvchilar tomonidan turlicha tadqiq qilinadi. Biz mashq va dizayn-tahlil metodini bilish faolligini kuchaytirish metodlari sifatida ta‘riflaydigan mualliflar fikriga qo‘shilamiz. Mashq metodi “o‘ziga xos harakatlarni amalga oshirish usullari, faoliyatga yo‘naltirilgan, qisqa takrorlashlardan iborat, u to‘g‘ri ish usullarini shakllantirish, keraksiz harakatlarni bartaraf etish, yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatishda qo‘llaniladi”, dizayn-tahlil esa “ularning xususiyatlari va tavsiflarini o‘rganish uchun turli ob‘ektlarni o‘rganish”dir.

Bo‘lajak texnologiya ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashda va kompetentligini samarali rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar bilan bir qatorda, oliy ta‘lim tizimidagi interfaol o‘qitish jarayoni va interfaol ta‘lim metodlari salmoqli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tikuv buyumlarini kompyuterda loyihalash asoslari. Xojimatov.R., F.Usmanova va boshqalar Toshkent “Ilm-ziyo” 2017.287– b.

2. Ximmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diognostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta‘lim muassasalarining “kasb ta‘limi” yo‘nalishlari misolida). Diss...ped.fan.dok.-Toshkent.-2018.-230 b

3. Санников Д.В, Развитие конструкторско-технологической компетентности будущих учителей технологии средствами проектного обучения. Автореф. дис... канд. пед. наук. -26 с